

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7843654>

Muhammadiyev Nodir Rustamzoda

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti asissenti

Jo‘rayev Ilyos Ro‘ziqulovich

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti. Tayanch doktoranti,
Samarqand, O‘zbekiston*

E-mail: jorayevilyos1@gmail.com

Annotatsiya: *Tildagi atoqli otlarning xilma-xil xususiyatlari juda qadimgi davrlardan buyon turli soha olimlarining diqqatini o‘ziga jalb etib kelmoqda. Ma’lum shaxslarning ism va laqablari jamiyat tarixini yaqinroq tanish va to‘liq tasavvur hosil qilish yo‘lida alohida ahamiyatga egaligi bois muhim mavqega ega. Ba’diy asar, shuningdek, leksika tarkibidagi xayoliy, muallif (xalq) tomonidan to‘qilgan va haqiqiy otlarning nomlash sabablari, nom tanlash usullari, nomlash bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalar, nomlashning diniy, ideologik asoslari, nom qo‘yishning boshlanish nuqtasi, ism qo‘yishdagi o‘z va o‘zlashma qatlam hodisalari juda qiziq va o‘rganish talab qiladigan hodisalardan hisoblanadi. Mazkur sabablar e’tiboridan atoqli otlarni tilshunos, geograf, psixolog, sotsiolog, tarixchi, etnograf kabilar o‘rganadi. Shu bois, Barcha tarixiy leksikografik manbalarda onomastik birliklar izohlangan.*

Biz mazkur maqolamizda “Charog‘i hidoyat” lug‘atidagi antroponimlarni tadqiq etamiz.

Kalit so‘zlar: *atoqli ot, antroponim, onomastika, lug‘aviy birlik, leksikografiya, lug‘at, laqab, etimologiya, so‘zlik.*

Tildagi atoqli otlarning xilma-xil xususiyatlari juda qadimgi davrlardan buyon turli soha olimlarining diqqatini o‘ziga jalb etib kelmoqda. Jumladan, eramizgacha I asrda yashagan Yuliy Polluks “Onomastik” nomli atoqli otlarga izoh beruvchi lug‘at yaratgan bo‘lsa-da [5; 13], bu hodisani o‘rganish Sharqda, asosan, izohli lug‘atlar tuzish bilan uyg‘un tarzda rivojlandi. Ma’lumki, ko‘pgina badiiy va tarixiy asarlarda atoqli otlar qo‘llangan bo‘lib, bularni o‘rganish borasida to‘liq bir tadqiqot olib borilmagan. Ya’ni ba’diy asar, shuningdek, leksika tarkibidagi xayoliy (afsonaviy), muallif (xalq) tomonidan to‘qilgan otlar va haqiqiy otlar, nomlash sabablari, nom tanlash usullari, nom qo‘yish bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalar, nomlashning diniy, ideologik asoslari, nom qo‘yishning boshlanish nuqtasi, ism qo‘yishdagi o‘z va o‘zlashma qatlam hodisalari juda qiziq va o‘rganishni talab qiladigan hodisalardan hisoblanadi. Mazkur sabablar e’tiboridan atoqli otlarni tilshunos, geograf, psixolog, sotsiolog, tarixchi, etnograf kabi

turli fan sohalari olimlari o'rganadi. Shu bois, deyarli barcha tarixiy leksikografik manbalarda onomastik birliklar izohlangan.

Ma'lum shaxslarning ism va laqablari jamiyat tarixini yaqinroq tanish va to'liq tasavvur hosil qilish yo'lida alohida ahamiyatga egaligi bois muhim mavqega ega. Nomsiz qadim davrlardan boshlanib, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni osonlashuviga xizmat qilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, insonlarga nom qo'yishdan oldin laqab qo'yish xos edi. Ammo laqab o'zga shaxsni anglashda qiyinchilikni keltirib chiqarar edi. Negaki, bir insonning xususiyatlarini tushunish uchun ko'plab so'zlardan foydalanishga to'g'ri kelar edi [4; 157].

Nom qo'yish insoniyat taraqqiyoti tarixi bilan chambarchas bo'lib, insoniyat tarixida shunday davrlar mavjud ediki, odamlar farzandlariga asosan diniy-afsonaviy ismlar qo'yardilar. Keyinchalik, bu davr an'analari yo'qolib odamlar sekinlik bilan qahramonlik, shijoat va jasurlikni ifodalovchi hamda tabiatning g'zalligini ifodalovchi gul-u chechaklarning nomlarni qo'yishni o'zlariga odat tusiga aylantirdilar. Jumladan, har bir ism va taxallus milliy qadriyatga ega va xalqlarning milliy an'alariga muvofiq holda tanlanadi. Aytish mumkinki, lug'atlarda antroponimlarga izoh berilishi eng qadimiy lug'atlar bilan bog'liq. Jumladan, bu jarayon eng qadimiy lug'atlar bilan bog'liqdir. Bu kabi an'analarni keyinchalik yaratilgan barcha tarixiy lug'atlarda, jumladan, biz tadqiq etayotgan Sirojiddin Alixon Orzuning "Charog'i hidoyat" lug'atida ham kuzatishimiz mumkin.

Barcha tarixiy lug'atlar qatori "Charog'i hidoyat" lug'atidagi mashhur shaxslarning nomi va badiiy asar qahramonlari izohlangan. Mazkur lug'at 1734-yilda hindustonda tuzilgan bo'lib, 2264 ta so'z, so'z birikmasi va frazeologizmlar izohlangan. E'tiborli tomoni shundaki, muallif o'z taxallusini ham keltirib o'tadi. Jumladan, lug'atda shaxs nomi 19 ta bo'lib, *Orzu*, *Ashraf*, *Rustami Yakdast – Yakdast* [220], *Zaytun*, *Sog'ariy*, *Suro'sh*, *Surxayyor*, *Xalajoniy*, *Xoja Marvorid*, *Shirin*, *Kufriy*, *Kayumars*, *La'lxafton*, *Puryoyi Valiy* (Pahlavon Mahmud), *Mano'har*, *Nuriy*. Shuningdek, quyidagilar ham shaxs oti ekanligi keltirilgan: *San'on* (Shayx Sa'non), *Yakdast*, suratxon (*Suratiy* – Alixon Orzu bilan bir vaqtda Isfahonda yashagan bir shaxs), *La'lxafton – Dastirostiy va Bade' – Dastichapiy* (Moliki ushtur – "Qissai Hamza" qissasida keltirilgan pahlavon), *Hotam* (to'quvchi nomi yoki Hotami toy) [119] kabilarni o'z ichiga oladi.

Orzu – ma'ruf; va bu nusxa ("Charog'i hidoyat" – J.I.)ning muallifi taxallusi, nechukki aytgan:

Ба юни ишқи ту мақбули оламе шудаам,

Кадам дил, ки дар-ӯ чои Орзуи ту нест [7; 14],

Ya'ni, Sening ishqing barokatidan olamga maqbul bo'ldim,

Qay yurakkim, unda Orzuingning o'rni yo'q?!

Mazkur bayt lugʻat muallifi ijodiga oid boʻlib, bunda taxallus sanʻati qoʻllangan. Agarda kimki, shoir haqida toʻliqroq maʼlumotga ega boʻlmasa, yoki badiiy sanʼatlardan xabardor boʻlmasa, mazkur maʼno tovlanishini anglamaydi.

Muallif ayrim nomlarning mashhurligidan ularning sifatini keltirish bilan cheklansa (Puryoi Vali – kurashchilar piri (Pahlavon Mahmud – J.I.) ning nomi [7; 52]), uning baʼzi izohlari ensklopedik xarakterida boʻlib, soʻzlik haqida toʻliq maʼlumot keltiriladi.

Ashraf – arabcha soʻzdir; mashhur maʼnoda; shuningdek, ismi Saʼid boʻlgan Mozandaronlik shoir taxallusi boʻlib, u Eronning mashhur ulamolaridan Mulla Muhammad Solih Mozandaroniyning oʻgʻlidir. Deydilarkim, mazkur Ashraf Oxund Muhammadboqir Majlisiyning jiyani (hamshirazoda) dirkim, shia mujtahidlaridandir. Mazkurlarning ahvoli Hind va Eron tazkiralarda masturdir. Shuningdek, Erondagi joy nomi, Vahid aytadi:

Ҳавои Ашраф асту оби Шероз,
Агар обу ҳавое дар чаҳон аст.

Va haqiqat shuki, Mozandarondagi joydirkim, fagʻfuriy⁸⁴ podshohlar u yerni poytaxt qilgan va oliy imoratlar qurgan [7; 23].

Sogʻariy – shoir taxallusikim, Mavlono Jomiy alayhirahmaning muosiri edi va Jomiy alayhirahma muqobilida oʻziga Sogʻariy taxallusini qoʻllar edi.va taxallusga nisbat nimalar Jomiy tomonidab nima bitilgan boʻlsa tazkiralarda masturdir. Shuningdek, teri nomi boʻlib kemuxt ham deyilar. Asar deydi:

Фитода зоҳиди хазро ба пўсти чомаи ман,
Барои теғ бувад соғари ҳамеша ғилоф.
Хазро зохиди тushib mening toʻnimga, nechukkim
Тигʻ uchun hamesha sogʻariy gʻilofdir.

“Farhangi zaboni tojiki” (FZT) ning 1969 yilgi nashrida: Сағрӣ•1. кафали асп, хар ва ғ.; 2. пўсти кафали асп, хар ва ғ., ки ош додашудааст ва барои пойафзор ба кор меравад; 3. *мач*, . сахтруй, бешармӣ.

Ин чӣ сағриву чӣ руй асту чӣ кор,
Ки ба рўзе андар ой чанд бор. *Румӣ*

OʻTILda ham mazkur maʼnoda “sagʻri” shaklida qoʻllangan [8; 467], Qizigʻi shundaki, mumtoz lugʻatlarda qoʻllangan va eski FZT matnlarida mavjud boʻlgan mazkur maʼno 2008 yilgi FZT lugʻatidan joy olmagan [10; 192].

Keltirilgan mazkur antroponimlarni ism, laqab, taxallus kabi turlarga boʻlish mumkin. Lugatda keltirilgan tarixiy shaxslar, asosan, shoir (*Orzu*, *Ashraf*, *Sogʻariy*, *Kufriy*, *Suratiy*, *Nuriy*), kurashchi (*Rustami Yakdast – Yakdast*, *Xalajoniy*, *Puryoyi Valiy*), shoh (*Kayumars*), musiqachi (*Zaytun*), naqqosh (*Manoʻhar*), qiziqchi (*Xoja*

⁸⁴ **ФАҒФУР** 1 **فغفور**. (*айнан* фарзанди Худо), лакаби подшоҳони қадими Чин. 2. Зарфҳои чинӣ, чинивор; **ҳафт фағфур** киноя аз ҳафт сайёра. **ФАҒФУР** 1 **فغفوري**. он чи мансуб ба фағфураст; **хонадони фағфурӣ**, **подшоҳони фағфурӣ**. 2. зарфҳои чинӣ (*коса*, *пиёла*) [9; 381].

Marvorid), to‘quvchi (*Hotam*), asar qahramoni (*Besutun, Surxayyor, Shirin, La’lxafton – Dastichapiy, Dastirostiy, Ba’de’, Sa’non*), yoki afsonaviy-diniy shaxs (*Rustami yakdast, Kayumars, Suro’sh, Hotam*) kabilardan iborat bo‘lib, bu shaxslarning barchasi yozma manbalarda nomlari kelgan:

Suro’sh – farishta ma’nosida; hamda g‘oyibdan keladigan ovoz (vahiy – J.I) va ilhom ma’nosida: Vahid me’roj haqida aytadi:

Карда дар ин ҳол сурӯши азал,

Дар ҷигари рӯҳи амин нур ҳал [7; 124]. Mazkur so‘z “Dehxudo”da bir necha ma’noda qo‘llangan: “*Zardushtiylik dinidagi xudo, zardushtiylik dini farishtalari, umuman yaxshi xabar keltiruvchi farishta, har oyning 17-kuni, ezgu xabar, vahiy, ilhom, g‘oyibdan kelgan ovoz*” ma’nolarini bildirgan bo‘lib, keyinchalik islom dini tarqalgandan so‘ng Jabroil (a.s.) ma’nosida ham qo‘llangan [2; 13634]. Keltirilgan izohdan bilinayaptiki, bu so‘z umuman farishta ma’nosida emas, balki xabar keltiruvchi farishta (Jabroil a.s.) va u keltirgan vahiy ma’nosida qo‘llangan [7; 274].

Yuqorida keltirib o‘tganimiz kabi ko‘pgina atoqli otlar o‘z navbatida turdosh othamdir, shu bois bu kabi ayrim so‘zlarni ikki o‘rinda ham sharhlab o‘tgan. Jumladan, “*Rustami yakdast*” va “*yakdast*” birligida bu holatni kuzatamiz:

Rustami yakdast – mashhur Rustam (Shohnoma qahramoni – J.I.) dan bshqa, kuch-quvvatda mashhur shaxs edi. Rustami yakdast hikoyati afsonadir, to‘qiganlar va Rustam bilan panja olishgan (kuch sinashgan). Va bu viloyat (Xuroson va Movorounnahr) da mashhurdir. *Salimdan bayt keltirigan* [7; 111].

Yakdast – hamvor va yakson (tekis); *Yana Salimdan bayt keltirilgan.*

... Va yakdast va dudast xil’at va kiyim, negaki so‘zlashuv tilidan tadqiqotga olingan. Shuningdek, Rustami yakdast pahlavon ismidir, Salim ash’oridan zohir bo‘ladi [7; 219].

Surxayyor – ayyor (firibgar, yolg‘onchi) nomidir. Salim aytadi:

РАВОН КУН АЗ БАРОИ МАЙ, КИ РАЗ ОН СУРХАЙЁР АСТ,

КИ ТО РАФТА САВОРИ ДАСТУ ГАРДАНБАСТА МЕОРАД.

Ya’ni, Jo’natgin may uchunkim, ul raz⁸⁵ Surxayldir

Nechukkim, otliqni qo‘lu bo‘yin bog‘liq keltirur.

Va yana bir misoli “Qantura” so‘zligida keladi [7; 130].

Lug‘atda “Qantura” arabcha, shotir (qaroqchi) va ayyorlarning etagi yo‘q maxsus kiyimi deb izohlangan va “Qomus” va “Suroh” kabi manbalarda uchratmaganligini ta’kidlagan. Ashrafdan keltirilgan misol tariqasidagi baytda Surxayyor *сурху аўёп* (surxi ayyor) shaklida oddiy so‘z sifatida kichik harflar bilan keltirilgan. Bizningcha, buning sababi Surxayyor, Surxayl anroponimi asosida hosil bo‘lgan “qip-qizil jinni”, “qip-qizil yolg‘onchi” ma’nosidagi “ayyori surx”, “baloi surx” kabi birliklar bo‘lgan. Aslida, mazkur o‘rinda Surxayyor atoqli ot ma’nosida qo‘llangan va bunga ishora ham mavjud.

⁸⁵ Tok, uzum novdasi

Дашт аз лола чу қантураи сурхи айёр (Surxayyor – سرخ عيار)

Кӯҳ аз сабза чу қайтули⁸⁶ зумуррудшоҳӣ (zumurrudkoriy – زمرد کاری⁸⁷)

Ya’ni: sahero lolaqizg’aldoqdan Surxayyor qanturasidek, tog’ sabza (ko’klam) sabab zumraddan ishlangan saroy[7; 164].

Shuni ham takidlash kerakki, mazkur badiiy obraz ko’pgina kitobiy va xalq dostonlarida salbiy obraz shaklida keltirilgan, jumladan, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Alpomish” kabi dostonlarda salbiy obraz sifatida gavdalanadi.

Qahramonlik qissalari tarkibida qo’llanadigan “La’lxafton” laqabi ham berilgan bo’lib, shunday izohlangan: **La’lxafton** – asli ismi Qosim bo’lgan va mavzusi mashhur qissa qahramoni laqabi bo’lib, u Hamzaning o’g’lidir.

Чу маҳ гаштӣ фирӯзи шабнишинон,

Бадёосор аммо Лаълхафтон.

Va Bade’ ham uning farzandlaridan biri bo’lib, Bade’uzzamonning muxaffafidir [7; 188].

Keltirilgan kishi ismlarining aksari atoqli ot bo’lish bilan birga turdosh ot hamdir: **Zaytun** – arabcha; ma’ruf meva; ... Eronlik mashhur fijkakkchi [7; 121].

Shirin – ma’ruf; ... mashhur ma’shuqa; ... go’dak va uning so’zi; suyuqli va aziz [7; 143].

Muallif ayrim so’zlarni etimologiyasi haqida ham ma’lumot beradi, jumladan, Kayumars so’zining imlosi va etimologiyasi haqida fikr bildirib, Kayu-go’yo – so’zlovchi, so’zamol; mart/mard – erkak – “notiq erkak” ma’nosida ekanligini ta’kidlaydi [7; 177].

Mano’har – yaxshi va ezgu ma’nosida hindcha so’z; hindlar nomi; hind naqqoshi [7; 197].

Nuriy – ... to’ti; shoir taxallusi [7; 210]. Shuni qayd etish lozimki, mazkur shoir haqida keltirilgan ma’lumotlar xuddi kichik tazkirani eslatadi, ya’ni u haqida ma’lumot berilib, she’ridan so’zlikka aloqasiz bir bayt keltiriladi.

Shuningdek, lug’atnavis Bulvafo – buloq nomi, Purbudog’iy – nok nomida eponym yoki antpotoponim haqida ma’lumot beradi, ya’ni buloq uning egasi yoki nok uni yetishtirgan kishi nomi bilan atalganligini ta’kidlaydi.

Lug’atdagi kishi nomlarini o’rganish jarayonda shunday xulosa qilish mumkin:

1. muallif o’z zamonasining asosan ismlari manbalarda kelgan mashhur shaxslari va badiiy asar qahramonlari haqida ma’lumot beradi;
2. Keltirilgan antroponimlarning ism, taxallus yoki laqab ekanligini, yashagan davri (qadimda, Akbarshoh davrida, Abbosiylar davrida, Jomiy zamondoshi, zamondoshim kabi) va yashagan joyi ko’rsatiladi;
3. Ba’zi antroponimlarning izohida kishi ismi ekanligi aytib o’tilsa, ayrim hollarda ensklopedik izoh keltiriladi

⁸⁶ O’rdaning dam olinadigan, istirohat qilinadigan qismi, “Lug’ati Muin”da turkiy so’z ekanligi keltirilgan [12; 144].

⁸⁷ Novalkishur matnida shu tarzda berilgan va to’g’risi ham shu.

Shuningdek, Alixon Orzu turli soʻzliklar tarkibida biror bogʻliqlik sabab koʻpgina kishilar haqida maʼlumot keltiradiki, bu tarixiy jarayonlarni oʻrganish, shoirlar haqida tazkiralarni tuzish va tadqiqotlar olib borish uchun muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Loghatnâme (Encyclopedic Dictionary). Chief Editors: Mohammad Moʻin & Jaʼfar Shahidi. Tehran, Tehran University Publications, 1998-1999. 16 (14) vols.
2. Алимӣ Қ. Ономастика (назария ва амалия) *дастури шмӣ-методӣ*. – Душанбе, 2017. – 552 саҳ.
3. Баҳриддин Дарвеш «Чароғи ҳидоят»-и Орзу ва забони тоҷикии форсӣ. – Душанбе. 1992. – 108 с.
4. Воҳидов А. Характеристикаи структури-семантикии калимаҳо дар “Ғиёс-ул-луғот”. Дисс. барои гирифтани унвони номзади илми филология. Душанбе, 1975. – 195 с.
5. Йўлдошев Б. “Ўзбек ономастикаси масалалари” танланма фанидан услубий кўлланма. — Самарқанд. СамДУ нашри, 2011. – 112 б.
6. Отахонова А. “Фарҳангнома”-и Ҳусайн Вафой. – Душанбе, “Дониш”, 1986. – 124 с.
7. Сирочуддин Алихони Орзу. Чароғи ҳидоят. – Душанбе. Ирфон, 1992. – 288 с.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: I-V жилдлар. –Т.: O‘zbekiston milliy ensklopediyasi. – 2008.
9. Фарҳанги забони тоҷикӣ (аз асри X то ибтидори асри XX): – М: Сов. энциклопедия, 1969. Ҷ. 1. 951 с. Ҷ. 2. 1904 с.
10. Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ – 2008. Ҷ. 1. 950 с. Ҷ. 2. 1895 с.
11. سراخ الدين على خان آرزو. چراغ هدايت. – نولکشور، 1930. – 112
12. عادل ارشادي فرد. فرهنگ وازگان ترکی در زبان وادبيات فارسی. 1979. 336 ص.